

## **Qarshi filialida ilmiy seminar**

2019-2020 o'quv yilida TIQXMMI Qarshi filiali direktorining 2019 yil 23 oktyabrdagi buyrug'iqa asosan "Qishloq va suv xo'jaligi muhandisligi muammolari va ilmiy yechimlari" nomli Ilmiy seminar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ilmiy seminar tarkibi 17 nafar fan doktori, falsafa doktori (PhD) va fan nomzodlaridan iborat bo'lib, unga Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida faoliyat olib borayotgan sohaning yetuk mutaxassis-olimlari ham jalb qilingan. Ilmiy seminar raisi - Mamatov Farmon Murtozevich, QarMII professori t.f.d., ilmiy seminar raisi muovini - Ravshanov Hamroqul Amirqulovich TIQXMMI Qarshi filialining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari, t.f.n., dotsent, kotib - Qurbonov Sherzod Baxtiyorovich, doktorant. Ilmiy seminarning 1-sonli yig'ilishi 2019 yil 26 oktyabrda bo'lib o'tdi. Unda Ilmiy seminarning ish rejasi va uning faoliyatini yo'lga qo'yishga doir tashkiliy masalalar ko'rib chiqildi. Muzokaralarda QarMII professori, t.f.d. F.M.Mamatov, QarMII dotsenti, t.f.n. R.N.Norchaev, QarMII dotsenti, t.f.d. U.U.Jonqobilov, QarMII dotsenti, t.f.n. E.E.Eshdavlatov, TIQXMMI Qarshi filiali dotsenti, b.f.n. Sh.R.Ubaydullaev, TIQXMMI Qarshi filiali dotsenti, q/x.f.n. A.A.Abdiev, TIQXMMI Qarshi filiali dotsenti t.f.n. O.J.Primovlar faol ishtirok etishdi.



**TIQXMMI matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**